

FOLKLORIZMNING POETIK MAZMUNNI BOYITISHDAGI O'RNI**Boynazarova Gulbahor Rustam qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada folklorizmning poetik mazmunga ta'siri izohlangan. Yozma adabiyotda muallif yoki personaj nutqida qo'llangan xalq maqollari, matal hamda iboralar oddiy folklorizm sanaladi. Ijodkorning folklorga xos tasvir uslubiga ergashishi, folklor materialidan o'z asarida foydalanishi, folklorga mansub syujet yoki motivni asariga olib kirishi va boshqa murakkab folklorizm hisoblanib, ular nasriy va nazmiy adabiyotda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda Usmon Azim ijodida ham uning yorqin namunalarini ko'rishiz mumkin.

Kalit so'zlar : folklorizm, poetik mazmun, maqol, uslub, nutq.

THE ROLE OF FOLKLOREISM IN THE ENRICHMENT OF THE POETIC CONTENT**ABSTRACT**

The article describes the influence of folklorism on poetic content. Folk proverbs, phrases and expressions used in the speech of the author or character in written literature are considered simple folklorism. The artist's following of folklore style of imagery, use of folklore material in his work, introduction of folklore plot or motif into his work, and other complex folklorisms are considered to be important in prose and poetic literature. Today, you can see its bright examples in the work of Usman Azim.

Key words: folklorism, poetic content, proverb, style, speech.

KIRISH

Folklorizm — yozma adabiyotda qo‘llangan og‘zaki poetik ijod materiali. Ilmiy adabiyotlarda folklorizm “ikkinchi shakl” (K.Chistov) atamasi bilan ham yuritiladi. Yozma adabiyotda muallif yoki personaj nutqida qo‘llangan xalq maqollari, matal hamda iboralar Oddiy Folklorizm sanaladi. Ijodkorning folklorga xos tasvir uslubiga ergashishi, folklor materialidan o‘z asarida foydalanishi, folklorga mansub syujet yoki motivni asariga olib kirishi va boshqa murakkab Folklorizm hisoblanadi. Asqad Muxtorning “Chinor”, Turob To‘laning “Suyuk momo”, Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni”, Abdulla Oripovning “Kasam dara”, O‘tkir Hoshimovning “parvona kuni” kabi asarlarida Folklorizmning yorqin namunalari bor. Folklorizmlar madaniy hayot rivojining hozirgi bosqichida adabiyot va san’atning g‘oyaviybadiiy jihatdan uzlusiz taraqqiyotini ta’minlovchi bosh omilga aylandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Xalq og‘zaki ijodi o‘zining betakror tarovati, o‘ziga xos usuli bilan insonlar qalbidan chuqur joy egallab kelmoqda. Shunday yozuvchi, shoirlarimiz borki, xalqona ohang, xalqona usul ular ijodining bir bezagi bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek adabiyotida folklor ta’siri natijasida juda ko‘plab asarlar, she’rlar yaratildi. Usmon Azim ham xalq og‘zaki ijodidan ruhlangan holda o‘zining “Baxshiyona” turkumini yaratib xalq ijodining yetuk bilimdoni ekanligini namoyish etdi. Ushbu turkumga kiritilgan she’rlar asosi folklorga borib taqaladi.

NATIJALAR

Usmon Azim ijodini kuzatar ekanmiz juda ko‘p o‘rinlarda folklordan foydalanganiga guvoh bo‘lamiz. Uning “Boysun haqida ballada” sida ham

“Bor ekanda,

Yo ‘q ekan,

Och ekanda,

To ‘q ekan.

Ko ‘rdim,

Kezdim, Boysunday joy

Bu olamda yo ‘q ekan“ ertak uslubidan foydalanib Boysunning ta’rifini beradi.

Bundan tashqari Usmon Azimning “Yurt farzandlari haqida”, “Elbek baxshi va Oytuman” asarlarida ham folklor an’analari yaqqol ko‘rinadi. “Yurt farzandlari haqida” doston kabi boshlanadi. Ijodkor xalqona ohang, qofiya va so‘z boyligi bilan xuddi XV asrdagi dostonlarni gavdalantiradi, “Alpomish”, “Kuntug‘mish”, “Ravshan” dostonlarini o‘qigandek bo‘lasiz. Hatto mazmuniga singdirilgan pand-nasihat ham xalqona. Bugungi kun uchun aynan shu xususiyati ahamiyatli

MUHOKAMA

“Baxshiyona” turkumining yana bir o‘ziga xos xususiyati – bu she’rlarning deyarli barchasi baxshi tilidan ya’ni, Elbek baxshi tomonidan do‘mbira jo‘rligida aytilganidiridir. Shoir zoti borki, ishqni kuylaydi, mehr-muhabbatni ulug‘laydi. Usmon Azimning ushbu turkumidagi she’rlar ham ishqnomasi tarzida yangraydi, ko‘ngillarga taskin, tasalli beradi. Shu bois bo‘lsa kerak ushbu she’rlar qo‘shiqqa aylanib, xofizlar tilidan, xalqimizning dilidan tushmay kelmoqda. Asarda “Elbek baxshi bir kambag‘alning to‘yini gurillatib, necha kampirqizlarning yuragini dirillatib, ovuliga qaytib kelayotgan” da bir karvonga duch keladi. Karvon atrofi otliqlar bilan to‘la. Shu payt sevganidan ayrılib bo‘zlab borayotgan yori Oytumanning ovozi eshitiladi. U yig‘lab-yig‘lab dard-u holini bayon qilib borardi. O‘zining orzularining armonga aylanishini kuzatib turgan baxshi yorini qo‘shiq aytib kuzatadi. Asarning qolgan qismlarida Alpomish va uning sarguzashtlari tasvirlanadi. Alpomishning mardlar bilan olishuvi, hiyla sabab Qalmoqqa asir tushishi nazr va nazm uyg‘unligida bayon qilinadi.

XULOSA

Ularning asos mohiyati ishq muhabbatdan iborat va biz ularning ayrim namunalari bilan tanishdik. Shoir she’rlari ko‘pincha aqliy muhokamalar bilan qorishib ketgan. Bu esa jiddiylik hamda donishmandlik samarasi va alomati. Zamon bilan hamnafas shoir she’rlari mazmundor va bugungi hayot ohangini aks ettirayotgan go‘zal asarlardir. Baxshiyona ohangdagi she’rlari xalqona va o‘ynoqi xususiyati bilan alohida ajralib turadi. Bu xalqona va o‘ynoqilik zamirida juda katta falsafiy donishmandlik va ijodiy tajriba yotadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Usmon Azim. Sog‘inch: She’rlar. –Toshkent: O‘zbekiston, 2007. – 200 b.
2. Tohir Shermurodov. Usmon Azim ijodiyoti. – Toshkent, 2011. – 204 b.
3. Умуроў X. И.Эҳтиёж тафти. – Т.: Ўзбекистон, 2009. 53-бет.
4. Sharipova L. XX asrning 70-80-yillari o‘zbek she’riyatida folklorizm. – Toshkent: Fan, 2011. – 153
5. Sharopova L. XX asrning 70-80-yillario‘zbek she’riyatida folklorizmlar: Filol.fan.nomz...dis avtoref. – Toshkent, 2008. – B.10.
6. Pardayev Z. Istiqlol davri she’riyatida xalqona pafosning yangilanishi. Filol. fan...falsafa d-ri (PhD) diss... –Toshkent, 2017. – B. 33.